| MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA.....                                                           | 1042 |
| <b>Rahimova Gulnoza</b>                                                                                                                           |      |
| SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI.....                                      | 1052 |
| <b>Akbarova Maloxat Atabekovna</b>                                                                                                                |      |
| UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....                       | 1056 |
| <b>Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna</b>                                                                                                           |      |
| FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....                              | 1062 |
| <b>Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich</b>                                                                                                          |      |
| O'ZBEKISTONDA "YASHIL KREDITLASH" TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT.....                                                                               | 1069 |
| <b>Erkinov Farrux Rustam o'g'li</b>                                                                                                               |      |
| AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGI TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....                                                                 | 1075 |
| <b>Nazarova Rushana Ravshan qizi</b>                                                                                                              |      |
| MOL-MULK SOLIG'I TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIVAVIY ASOSLARI.....                                                                           | 1080 |
| <b>Qodirov Hasan Do'stqobilovich</b>                                                                                                              |      |
| AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI IQTISODIY JARAYONLARNI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....                                            | 1084 |
| <b>Matyoqubov Yo'ldoshboy Ergashboy o'g'li</b>                                                                                                    |      |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI SOLIQ VOSITASI ORQALI QISQARTIRISHDA HUKUMATNING ROLI.....                                                                 | 1089 |
| <b>Pirnafasov Sarvar Bardibayevich</b>                                                                                                            |      |
| HUDUDNING TURIST JOZIBADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH VA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY TAMOYILLARI.....                                               | 1093 |
| <b>Q.A. Musaxanov</b>                                                                                                                             |      |
| TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUV YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                  | 1098 |
| <b>Umarova Nilufar Abdukaxor qizi</b>                                                                                                             |      |
| IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                      | 1103 |
| <b>Ulashev Xubbim</b>                                                                                                                             |      |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA OBODONLASHTIRISH XIZMATLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....                                                          | 1107 |
| <b>Hayitov Jamshid Xolvoyevich, Ibragimova Gulhayo Nuriddin qizi</b>                                                                              |      |
| INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... | 1112 |
| <b>Abdurasulov Sardor To'lqin o'g'li</b>                                                                                                          |      |



|                                                                                                                                                       |      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILYATI HOLATI<br>TAHLILI .....                                                              | 1119 |
| <b>Adilova Zohida Ikromjonovna</b>                                                                                                                    |      |
| HUDUDIIY IQTISODIY O'SISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL OMILLARI<br>VA SAMARADORLIGI .....                                             | 1124 |
| <b>Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li, Sadibekova Bibisara Djapparovna</b>                                                                           |      |
| SANOAT TARMOQLARIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI .....                                                                            | 1130 |
| <b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>                                                                                                                     |      |
| KICHIK BIZNESDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH.....                                                                       | 1136 |
| <b>Abdullayeva Shaxnoza Esonovna</b>                                                                                                                  |      |
| EKOTURIZMNING O'ZBEKISTON TURIZM BOZORIDAGI RIVOJLANISH SALOHIYATI.....                                                                               | 1141 |
| <b>Muxtarov Botir Abdusattarovich</b>                                                                                                                 |      |
| ISHSIZ VA BAND BO'LMAGAN FUQAROLARNING BANDLIGINI TA'MINLASH VA<br>MEXANIZMLARI .....                                                                 | 1145 |
| <b>Olimov Bekzod Nariman o'g'li</b>                                                                                                                   |      |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA HUDUDIIY RIVOJLANISH VA INVESTITSIYA SIYOSATINING<br>AHAMIYATI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....                       | 1149 |
| <b>Kurbanov Aybek Turabayevich</b>                                                                                                                    |      |
| RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLARDA DAROMADLAR TENGSIZLIGINING IQTISODIY O'SISHGA<br>TA'SIRI.....                                                        | 1154 |
| <b>Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>                                                                           |      |
| MILLIY INNOVATSION TIZIMNI TRANSFORMATSIYALASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY<br>MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                      | 1162 |
| <b>Azimov Bobir Fattoheвич</b>                                                                                                                        |      |
| ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING STARTUP DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AMONG<br>THE YOUNG GENERATION .....                                                   | 1169 |
| <b>Usmonkhujayeva Nigina G'ofur qizi</b>                                                                                                              |      |
| O'ZBEKISTONDA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA IQTISODIY<br>SAMARADORLIGI.....                                                     | 1174 |
| <b>Abdurazzoqov Hojiakbar Alisher o'g'li</b>                                                                                                          |      |
| O'ZBEKISTON RAQAMLI BANK XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA ASOSIY<br>TENDENSIYALARI.....                                                | 1179 |
| <b>Karimov Odiljon Boqiyevich</b>                                                                                                                     |      |
| ЗАКОНОМЕРНОСТИ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ РЫНОЧНОГО<br>СПРОСА.....                                                                         | 1185 |
| <b>Камилова Наргиза Абдукажоровна</b>                                                                                                                 |      |
| BUDJET TASHKILOTLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA ICHKI AUDITNING ROLI .....                                                                               | 1188 |
| <b>Karimov Djaxongir Ganiboevich, Nasriev G'olibjon Muxiddinovich</b>                                                                                 |      |
| YAPONIYADA IJTIMOIIY HIMOYA DASTURLARI VA IJTIMOIIY SUG'URTA TIZIMI .....                                                                             | 1193 |
| <b>Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li</b>                                                                                                              |      |
| KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING KONSEPSIYASIGA<br>O'TISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 1197 |
| <b>Bobomurodov Qayimjon Homidovich</b>                                                                                                                |      |
| ВЛИЯНИЕ ЦЕНОВОЙ КОНКУРЕНЦИИ НА УСТОЙЧИВОСТЬ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В<br>УЗБЕКИСТАНЕ .....                                                               | 1203 |
| <b>Гойибназарова Нозимахон Хамзаевна</b>                                                                                                              |      |
| SUG'URTA TASHKILOTLARI DAROMADLARI VA ULARNING SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI.....                                                                         | 1209 |
| <b>Buranova Lola Vaxobovna, Yaxshillikov Murod</b>                                                                                                    |      |





**Аннотация.** В статье системно проанализированы теоретические и практические аспекты формирования доходов и расходов страховых организаций. Актуальность исследования обусловлена усилением роли страхового рынка в обеспечении финансового потенциала, накопления и инвестиционного посредничества. В работе структурно оценены основные источники доходов страховых организаций — страховые премии, инвестиционные доходы, поступления от операций перестрахования и прочие операционные доходы. В составе расходов проведён сравнительный анализ страховых выплат, резервных отчислений, аквизиционных и административных расходов, а также затрат на перестрахование.

Дополнительно исследованы особенности налогообложения страховых организаций, включая освобождение страховых услуг от налога на добавленную стоимость (НДС), применение НДС по операциям вне основной деятельности, порядок исчисления налога на прибыль, а также особенности представления налоговой и финансовой отчётности. На основе данных Swiss Re Institute, OECD и официальной статистики Республика Узбекистан изучены глобальные тенденции и динамика национального страхового рынка. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию тарифной политики на актуарной основе, оптимизации расходов посредством цифровизации, диверсификации инвестиционного портфеля, усилению контроля качества страховых резервов, а также совершенствованию налогового учёта.

**Ключевые слова:** страховая организация, страховая премия, страховая выплата, коэффициент убыточности, комбинированный коэффициент, инвестиционный доход, финансовый потенциал, налог на добавленную стоимость (НДС), налог на прибыль, налоговая отчётность.

## KIRISH

Sug'urta tizimi zamonaviy iqtisodiyotning muhim institutsional segmenti bo'lib, risklarni qayta taqsimlash, iqtisodiy subyektlar faoliyatining uzluksizligini ta'minlash hamda jamg'armalarni investitsiya resurslariga aylantirish funksiyalarini bajaradi. Shu bois sug'urtalovchilarning daromad va xarajatlari qanday shakllanishi masalasi nafaqat mikroiqtisodiy boshqaruv, balki moliyaviy barqarorlik, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va investitsion jarayonlarning samaradorligi nuqtai nazaridan ham dolzarbdir.

O'zbekistonda sug'urta faoliyati bo'yicha asosiy huquqiy asos O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilanadi [1]. Unga ko'ra, sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

- Hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta summalarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini — annuitetlarni qamrab oladi);

- Umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug'urta tavakkalchiliklarining yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sug'urta bozorini institutsional modernizatsiya qilish va uni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida chora-tadbirlar esa Prezidentning 2019-yildagi qarori bilan boshlangan islohotlar doirasida kuchaytirildi [2]. Xususan, O'zbekiston sug'urta bozori ko'rsatkichlari (yig'ilgan sug'urta mukofotlari va to'lovlar) bo'yicha TOP uchlikdagi yetakchi kompaniyalar qatoriga asosan O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi (AJ), Kafolat sug'urta kompaniyasi (AJ) va Alskom sug'urta kompaniyasi (AJ) kiradi. Ular bozorning professional ishtirokchilari (sug'urtalovchilar) sifatida o'z xizmatlari bilan ajralib turadi.

Sug'urta agenti (yuridik shaxs, aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi) haq evaziga xizmatlar ko'rsatadi. Vositachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar uchun 1 mlrd so'm miqdoridagi chegara agentlik haqi summasi bo'yicha emas, balki realizatsiya qilish bo'yicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad bo'yicha aniqlanadi va tegishli tartibda qayd etiladi (SK 462-modda, 11-qism).

Maqolaning maqsadi sug'urta tashkilotlari daromad va xarajatlarning shakllanish mexanizmini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilish, xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyotini qiyoslash hamda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, shuningdek sug'urta agenti (yuridik shaxs, aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi) haq evaziga xizmatlar ko'rsatib, 1 mlrd so'm miqdoridagi chegaraga yetganida soliq hisoboti va moliyaviy hisobotni topshirish bo'yicha tahlillarni amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda 2025-yil yakunlari bo'yicha rasmiy ochiq ma'lumotlar asosida O'zbekiston sug'urta bozorining eng yangi ko'rsatkichlari umumlantirilib, daromad va xarajatlar muvozanatini baholashda kombinatsiyalangan koeffitsient, investitsiya ulushi va rezerv sifati o'rtasidagi bog'liqlik tizimli yoritildi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro ilmiy manbalarda sug'urtalovchi moliyaviy natijasining ikki tayanch omili ajratiladi: birinchisi — sug'urta operatsiyalarining texnik natijasi, ikkinchisi — investitsion faoliyat samaradorligi. Harrington va Niehaus sug'urta kompaniyasi rentabelligini baholashda zarar koeffitsienti, xarajat koeffitsienti va kombinatsiyalangan koeffitsientning markaziy ahamiyatini ta'kidlaydi [6]. Skipper va Kwon esa sug'urta tashkilotlari barqarorligini aktivlar sifati, rezervlar yetariligi hamda qayta sug'urtalash dasturlarining to'g'ri tashkil etilishi bilan bog'laydi [7].

Swiss Re Institute ma'lumotlari jahon sug'urta bozori uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishdan tezroq kengayib borayotganini ko'rsatadi [4]. OECD statistik bazasi rivojlangan mamlakatlarda investitsiya daromadi sug'urtalovchi daromadlarining muhim qismini tashkil etishini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa mukofotlar ulushi nisbatan yuqoriligini qayd etadi [5]. Deloitte tahlillarida InsurTech yechimlari, masofaviy savdo kanallari va da'volarni raqamli ko'rib chiqish mexanizmlari operatsion xarajatlarni qisqartirishning eng muhim manbalaridan biri sifatida talqin qilinadi [8].

Mahalliy tadqiqotlarda sug'urta bozorining institutsional muammolari, sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi hamda investitsiya faoliyati imkoniyatlari ko'rib chiqilgan [9-10]. Biroq daromad va xarajatlar tarkibini global va milliy ochiq statistik ma'lumotlar asosida 2025-yil yakunlarigacha qamrab olgan tizimli tahlillar hali yetarli emas. Shu jihatdan mazkur maqola amaliy va uslubiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahliliy-sintetik usul, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, tarkibiy tahlil hamda koeffitsientlar usuli qo'llanildi. Daromadlar va xarajatlar tarkibini baholashda sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, investitsiya daromadlari, rezerv ajratmalari, operatsion xarajatlar va qayta sug'urtalash bilan bog'liq ko'rsatkichlar asosiy indikator sifatida tanlandi.

Axborot bazasini Swiss Re Institutning Sigma hisobotlari, OECD Insurance Statistics ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining sug'urta bozori bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlari hamda O'zbekiston Respublikasining sug'urta sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarini tashkil etdi [1-5]. Olingan ko'rsatkichlar qiyosiylikni ta'minlash maqsadida yagona tahliliy mantiqqa keltirildi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, ayrim xalqaro ko'rsatkichlar 2022-2023-yillar kesimida, milliy ochiq ma'lumotlar esa 2025-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Shunga qaramay, mazkur yondashuv sug'urta tashkilotlari daromad va xarajatlari shakllanishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash uchun yetarli hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta tashkilotlari daromadlarining bosh manbai sug'urta mukofotlari bo'lsa-da, barqaror moliyaviy natija ko'p jihatdan investitsion daromadlar ulushi va xarajatlar boshqaruvi sifatiga bog'liq. Rivojlangan bozorlarda investitsiya daromadlarining nisbatan yuqori ulushi kombinatsiyalangan koeffitsient 100 foizga yaqinlashgan sharoitda ham rentabellikni ushlab turish imkonini beradi.

O'zbekistonda esa sug'urta bozori o'sish bosqichida bo'lgani sababli sug'urta mukofotlari va kapital kengayishi asosiy omil bo'lib qolmoqda (1-jadval).

1-jadval. Jahon sug'urta bozori yig'ilgan mukofotlari mintaqalar bo'yicha [4].

| Mintaqa / Mamlakat | 2020 (mlrd \$) | 2021 (mlrd \$) | 2022 (mlrd \$) | O'sish (%) |
|--------------------|----------------|----------------|----------------|------------|
| Shimoliy Amerika   | 1 876,4        | 2 054,1        | 2 218,3        | +7,9       |
| Yevropa            | 1 423,7        | 1 498,2        | 1 561,8        | +4,2       |
| Osiyo-Tinch okeani | 1 187,2        | 1 296,5        | 1 421,4        | +9,6       |
| MDH va O'zbekiston | 28,3           | 31,7           | 35,9           | +13,2      |
| Jahon jami         | 6 286,7        | 6 882,6        | 7 532,4        | +9,4       |

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2022-yillarda jahon sug'urta bozori yig'ilgan mukofotlari 6,29 trln dollardan 7,53 trln dollarga yetgan. Eng yuqori o'sish sur'ati MDH va O'zbekiston segmentida qayd etilgan bo'lib, bu rivojlanayotgan bozorlarda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab va bozor chuqurligining oshib borayotganidan dalolat beradi.

Daromadlar tarkibi bo'yicha qiyosiy tahlil O'zbekistonda sug'urta mukofotlari ulushining nisbatan yuqoriligini, investitsiya daromadlari ulushining esa hali past ekanini ko'rsatadi. Bu bir tomondan bozor o'sish bosqichida ekanini, ikkinchi tomondan investitsion boshqaruvni kuchaytirish uchun zaxira mavjudligini anglatadi (2-jadval).



2-jadval. Sug'urta tashkilotlari daromadlari tarkibi [3-5].

| Daromad turi                   | Ulushi (EU, %) | Ulushi (AQSh, %) | Ulushi (O'z, %) |
|--------------------------------|----------------|------------------|-----------------|
| Sug'urta mukofotlari           | 58,4           | 54,7             | 72,3            |
| Investitsiya daromadi          | 28,1           | 31,5             | 12,6            |
| Qayta sug'urtalash komissiyasi | 8,2            | 8,9              | 9,4             |
| Boshqa daromadlar              | 5,3            | 4,9              | 5,7             |
| JAMI                           | 100,0          | 100,0            | 100,0           |

AQSh va Yevropada investitsiya daromadining 28–31 foizlik ulushi sug'urta kompaniyalarining moliya bozorlaridagi faolligini aks ettiradi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari to'langan va kutilayotgan mukofotlarni qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqa aktivlarga joylashtiradi, bu esa qo'shimcha daromad manbaini shakllantiradi (3-jadval).

3-jadval. Sug'urta tashkilotlari xarajatlari tarkibi [3-5].

| Xarajat turi                   | Ulushi (EU, %) | Ulushi (AQSh, %) | Ulushi (O'z, %) |
|--------------------------------|----------------|------------------|-----------------|
| Sug'urta to'lovlari (zararlar) | 54,2           | 59,1             | 48,6            |
| Operatsion xarajatlar          | 22,7           | 20,3             | 28,4            |
| Rezerv ajratmalari             | 14,6           | 12,8             | 16,2            |
| Marketing va sotish            | 5,8            | 5,4              | 4,9             |
| Qayta sug'urtalash xarajatlari | 2,7            | 2,4              | 1,9             |
| JAMI                           | 100,0          | 100,0            | 100,0           |

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda operatsion xarajatlar ulushi rivojlangan bozorlar bilan qiyoslaganda yuqoriroq. Bu sug'urta mahsulotlarini sotish, polis yuritish, mijozlar bilan ishlash va zararlarni ko'rib chiqish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni chuqurlashtirish zaruratini ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval. O'zbekiston sug'urta bozorining ayrim asosiy ko'rsatkichlari [3].

| Ko'rsatkich                                         | 2023    | 2024        | 2025        |
|-----------------------------------------------------|---------|-------------|-------------|
| Sug'urta mukofotlari, mlrd so'm                     | 4 218,5 | 9 770,1     | 13 463,5    |
| Sug'urta to'lovlari, mlrd so'm                      | 1 876,4 | 2 204,5     | 2 985,5     |
| Sug'urtalovchilar investitsiyalari, mlrd so'm       | -       | 6 542,6     | 9 550,0     |
| Sug'urta tashkilotlari soni, birlik                 | 34      | 33          | 36          |
| Hayot sug'urtasi bo'yicha tashkilotlar soni, birlik | n/a     | 5           | 7           |
| Sug'urta majburiyatlari, mlrd so'm                  | n/a     | 2 702 074,1 | 3 813 112,7 |

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunida O'zbekiston sug'urta bozorida sezilarli kengayish kuzatilgan. Sug'urta mukofotlari 13,46 trln so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 37,8 foizga oshgan, sug'urta to'lovlari esa 2,99 trln so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, sug'urtalovchilarning investitsiyalari 9,55 trln so'mga yetib, bir yil ichida 46 foizga ko'paygan [3].

2025-yilda sug'urtalovchilar investitsiya portfelida depozitlar 63,2 foizlik ulush bilan yetakchilik qilgan, qimmatli qog'ozlar ulushi 14,6 foizni, ko'chmas mulk ulushi esa 17,4 foizni tashkil etgan. Bu holat sug'urta tashkilotlari investitsiya siyosatida konservativ yondashuv ustun bo'lsa-da, portfel diversifikatsiyasi kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Kombinatsiyalangan koeffitsient tahlili nuqtai nazaridan O'zbekistonda zarar koeffitsienti nisbatan past, biroq operatsion xarajatlar ulushi yuqoriroq bo'lib qolmoqda. Demak, sug'urta kompaniyalari uchun kelgusi bosqichdagi ustuvor vazifa — faol sotuv o'sishidan sifatli rentabellik o'sishiga o'tishdir. Buning uchun underwriting intizomini, aktuariy hisob-kitoblar sifatini va da'volarni boshqarish tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Olingan natijalar sug'urtalovchi moliyaviy barqarorligining uch tayanch omiliga urg'u beradi. Birinchidan, daromadlarning asosiy manbai bo'lib qolayotgan sug'urta mukofotlari portfel sifati hisobiga o'sishi kerak; aks holda sun'iy ravishda kengaygan portfel kelgusida zarar koeffitsientining oshishiga olib keladi. Ikkinchidan, investitsiya daromadi sug'urta operatsiyalaridagi tebranishlarni yumshatadigan muhim stabilizator vazifasini bajaradi. Uchinchidan, xarajatlarni nazorat qilish daromad hajmi qanchalik o'sishidan qat'i nazar, sof moliyaviy



natijaning saqlanishini ta'minlaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, zarar koeffitsientini maqbul diapazonda ushlab turish tarif siyosati, segmentatsiya, risk-seleksiya va qayta sug'urtalash dasturlarining sifati bilan chambarchas bog'liq [4-7]. O'zbekistonda esa bozorning jadal o'sish bosqichida ekani sababli operatsion jarayonlarning standartlashuvi, mahsulotlar rentabelligi kesimida ichki tahlil va mijozlar bilan ishlashning raqamli platformalarini rivojlantirish ayniqsa muhim.

Shuningdek, rezervlarning yetariligi va sifati masalasi alohida e'tiborni talab qiladi. Rezervlar faqat hisob-kitob elementi emas, balki sug'urtalovchi to'lovga qobiliyatligini ta'minlaydigan institutsional xavfsizlik yostiqchasidir. Shu bois rezervlarni shakllantirishda konservativ, ammo iqtisodiy asoslangan yondashuv qo'llanilishi lozim.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini tartibga solishda soliqqa tortish tizimi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu subyektlar uchun soliq majburiyatlari ularning faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, umumiy xo'jalik yurituvchi subyektlardan ayrim jihatlari bilan farqlanadi.

Avvalo, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) masalasini ko'rib chiqish lozim. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 245-moddasiga muvofiq, sug'urta xizmatlari QQSdan ozod etilgan hisoblanadi. Shu sababli sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan asosiy xizmatlar bo'yicha elektron hisob-fakturalar (EHF) rasmiylashtirilganda, 7-ustunda "QQSsiz" deb ko'rsatiladi. Bunda sug'urta tashkilotlari 10006\_36 kodli standart hisob-kitob shaklidan foydalanadi.

Biroq, amaliyotda sug'urta tashkilotlari faqat asosiy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi. Ular tomonidan asosiy faoliyat turiga kirmaydigan daromadlar ham shakllanishi mumkin. Jumladan, asosiy vositalar (AV) va tovar-moddiy qiymatliklarni (TMQ) realizatsiya qilish, vositachilik xizmatlari ko'rsatish kabi operatsiyalar ushbu toifaga kiradi. Mazkur holatda bunday operatsiyalar bo'yicha EHF rasmiylashtirishda QQSning amaldagi 12 foizlik stavkasi qo'llaniladi.

QQS bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi ham qat'iy belgilangan bo'lib, Soliq kodeksining 273-moddasiga muvofiq, hisobotlar hisobot oyidan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay topshirilishi lozim. Bu esa sug'urta tashkilotlarida soliq intizomini ta'minlash va moliyaviy oqimlarning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Sug'urta tashkilotlari uchun yana bir muhim soliq turi — foyda solig'idir. Ushbu soliq bo'yicha hisobotlar my.soliq.uz platformasida mavjud bo'lgan "Foyda solig'i (Sug'urta)" nomli maxsus shakl (10205-33 kod) orqali taqdim etiladi. Soliq kodeksining 338-moddasiga muvofiq, foyda solig'i bo'yicha hisobot davri chorak hisoblanadi. Hisobot choragidan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay topshirilishi shart, yil yakunlari bo'yicha esa yakuniy hisob-kitob 1-martdan kechiktirmay taqdim etilishi lozim (SK 339-modda).

Bundan tashqari, sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlarni ham belgilangan tartibda taqdim etadi. Bu borada "Moliyaviy hisobot (Sug'urta)" nomli 201-kodli maxsus shakllar joriy etilgan. Ushbu hisobotlarni topshirish muddati soliq solish tizimi yoki tushum hajmiga bog'liq emas.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari sug'urta tashkilotlarida daromad va xarajatlarning shakllanishi ko'p omilli mexanizm ekanini ko'rsatdi. Daromadlar tarkibida sug'urta mukofotlari yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa-da, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik investitsion daromadlar sifati va xarajatlar boshqaruvi bilan belgilanadi.

O'zbekiston sug'urta bozori 2025-yil yakunlari bo'yicha yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi: sug'urta mukofotlari 13,46 trln so'mga, sug'urta to'lovlari 2,99 trln so'mga, investitsiyalar 9,55 trln so'mga yetdi, bozor ishtirokchilari soni esa 36 taga chiqdi [3]. Bu ko'rsatkichlar sohada kapital bazasi va bozor sig'imining kengayotganini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sug'urta tashkilotlarining soliqqa tortish tizimi ularning faoliyatining o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda shakllangan bo'lib, unda QQSdan ozod etilgan asosiy xizmatlar bilan bir qatorda, qo'shimcha operatsiyalar uchun umumiy soliq rejimi qo'llaniladi. Bu esa sug'urta sektorida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, davlat byudjetiga tushumlarni ham barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, operatsion xarajatlarning nisbatan yuqori ulushi, investitsiya portfelida depozitlarning ustunligi va rezervlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish zarurati sug'urta tashkilotlari oldida turgan asosiy vazifalardir. Demak, sug'urta bozori samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida aktuariy asoslangan tarif siyosati, raqamli transformatsiya, aktivlar portfeli diversifikatsiyasi va prudensial nazoratni takomillashtirish namoyon bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021-yildagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/5739117>



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.08.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4459802>
3. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2025-yil yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari. URL: <https://napp.uz/oz/pages/statistics-and-analysis-for-im>
4. Swiss Re Institute. Sigma Report No. 3/2023: World Insurance: Stirring in the Doldrums. Zurich, 2023.
5. OECD. Insurance Statistics 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
6. Harrington S.E., Niehaus G.R. Risk Management and Insurance. 3rd ed. New York: McGraw-Hill Education, 2019.
7. Skipper H.D., Kwon W.J. Risk and Insurance: Perspectives in a Global Economy. Oxford: Blackwell Publishing, 2020.
8. Deloitte. Global Insurance Industry Outlook 2023. Deloitte Center for Financial Services, 2023.
9. Abdullayev A., Nazarov B. O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish muammolari va istiqbollari // O'zbekiston iqtisodiy jurnali. 2022. № 3. B. 87–96.
10. Rustamov S. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari // Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy axboroti. 2021. № 1. B. 112–121.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>